



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar

RAQAMLAR:


- 2018 yil yanvar oyida bozor xizmatlari hajmi 10170,8 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Toshkent shahrida xizmatlar sohasining o'sish sur'ati 114,5 % ga yetdi.
- Aholi jon boshiga bozor xizmatlari hajmi 314,0 ming so'mni tashkil etdi.

2018 yil yanvar oyida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 10170,8 mlrd.so'mni tashkil etdi va 10,5 % ga oshdi.

Eng yuqori xizmatlar hajmi transport xizmatlari (3152,9 mlrd. so'm), savdo xizmatlari (2751,5 mlrd. so'm), moliyaviy xizmatlar (1466,1 mlrd. so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlariga (701,6 mlrd. so'm) to'g'ri keladi.


Jami xizmatlar hajmida eng yuqori ulushni Toshkent shahri, Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Andijon, Qashqadaryo viloyatlari tashkil etmoqda.

Asosiy xizmat turlari bo'yicha xizmatlar hajmining solishtirilishi, mlrd.so'm



Xizmatlar tarkibida transport xizmatlari (31,0 %), savdo xizmatlari (27,0 %), moliyaviy xizmatlar (14,4 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,9 %) yuqori ulushlarni tashkil etmoqda.

2018 yil yanvar oyida xizmatlar tarkibi, % da



Transport xizmatlari tarkibida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi yuqori bo'lmoqda – 46,3 %. Bu uning harakatchanligi va xizmat narxining nisbatan yoqori emasligi bilan izohlanadi.


Savdo xizmatlari tarkibida chakana savdo (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari) xizmatlari yuqori ulushni tashkil etadi - 67,1 %

Moliyaviy xizmatlar hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar eng yuqori ulushni egallaydi (88,1 %)

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari iqtisodiyotning turli sohalariga va aholining kundalik hayotiga chuqur kirib bormoqda. Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng yuqori ulush telekommunikatsiya xizmatlariga to'g'ri keladi (88,8 %)

2018 yil yavar oyida eng yuqori o'sish sur'atlari me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (130,5 %), moliyaviy xizmatlar (127,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (120,6 %), transport xizmatlarida (117,9 %) kuzatildi

2018 yil yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'ati, % da




Bozor xizmatlarining umumiy hajmida transport xizmatlari eng yuqori ulushni tashkil etadi. O'sishning asosiy omillari yangi qurilish, kichik sanoat zonalarini tashkil etilishi va kengaytirilishi, sayyohlik faoliyatining rivojlanishi, logistik infratuzilmaning rivojlanishi hisoblanadi.

Hududlar bo'yicha jami xizmatlar hajmida transport xizmatlarining ulushi, % da



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng yuqori ulush telekommunikatsiya xizmatlariga (mobil aloqa, Internet tarmog'i, yo'ldosh aloqa xizmatlari va b.) to'g'ri keladi - 88,8 %.


Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining o'sish sur'ati, % da



Hududlar o'rtasida eng yuqori ulush Toshkent shahri (10,2 %), Qoraqalpog'iston Respublikasi (8,9 %), Sirdaryo (9,9 %), Xorazm (8,2 %), Namangan (7,9 %), Farg'ona (7,8 %), Jizzax (7,5 %), Andijon (7,1 %) viloyatlariga to'g'ri keladi.

2018 yil yanvar oyida moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 127,9 % ni tashkil etdi. Bozor xizmatlari hajmida moliyaviy xizmatlarning ulushi 14,4 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar oyida hududlar bo'yicha moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da



**2018 yil yanvar oyida hududlar bo'yicha xizmatlar
ishlab chiqarish hajmi**


	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
O'zbekiston Respublikasi	10170,8	110,5
Qoraqalpog'iston Respublikasi	295,9	103,6
viloyatlar:		
Andijon	549,5	103,7
Buxoro	438,3	103,0
Jizzax	211,0	103,6
Qashqadaryo	485,8	102,6
Navoiy	252,6	106,7
Namangan	424,9	104,2
Samarqand	676,4	104,2
Surxondaryo	373,9	102,8
Sirdaryo	128,6	104,3
Toshkent	755,3	103,6
Farg'ona	622,7	101,8
Xorazm	293,6	103,6
Toshkent shahri	3249,6	114,5

Hududlar o'rtasida eng yuqori hajm Toshkent shahri (3249,6 mlrd.so'm) va Toshkent viloyatiga (755,3 mlrd.so'm) to'g'ri keladi.

Eng kam hajm Sirdaryo (128,6 mlrd.so'm) va Jizzax (211,0 mlrd.so'm) viloyatlarida kuzatilmoqda.

Xizmatlar sohasini rivojlantirishda eng katta ulushni Toshkent shahri (31,9%), Toshkent (7,4%), Samarqand (6,6%), Farg'ona (6,1%), Andijon (5,4%), Qashqadaryo (4,8%) viloyatlari egallaydi.

2018 yil yanvar oyida respublika bo'yicha xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, % da




Ko'rsatilgan xizmatlarning umumiy hajmida eng kichik ulushni Sirdaryo (1,3%), Jizzax (2,1%), Navoiy (2,5%), Xorazm (2,9%) viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi (2,9%) kabi hududlar egallaydi.

**2018 yil yanvar oyida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga
to'g'ri keladigan bozor xizmatlari hajmi**

	Hajmi, ming.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
O'zbekiston Respublikasi	314,0	108,7
Qoraqalpog'iston Respublikasi	161,7	102,1
viloyatlar:		
Andijon	184,0	101,9
Buxoro	236,1	101,5
Jizzax	160,7	101,7
Qashqadaryo	155,8	100,6
Navoiy	265,8	105,0
Namangan	158,8	102,4
Samarqand	183,5	102,3
Surxondaryo	150,3	100,7
Sirdaryo	158,9	102,7
Toshkent	265,5	102,3
Farg'ona	173,3	100,2
Xorazm	164,0	101,9
Toshkent shahri	1329,2	112,8

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan eng yuqori xizmatlar hajmi Toshkent shahri (1329,2 ming.so'm), Navoiy (265,8 ming.so'm), Toshkent (265,5 ming.so'm), Buxoro (236,1 ming.so'm), Andijon (184,0 ming.so'm), Samarqand (183,5 ming.so'm) va Farg'ona (173,3 ming.so'm) viloyatlariga to'g'ri keladi.

2018 yil yanvar oyida alohida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlarning solishtirilishi



Davlat statistika qo'mitasi

Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi

Mas'ul:

Q.Berdiqulov

(71) 230-80-59